

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

***60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) bakalavriat ta'lif yo'naliшining malaka
talablari***

Chirchiq

ISHLAB CHIQILGAN, TACDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

Chirchiq davlat pedagogika universiteti kengashining 2022 yil « _____ » dagi ___ - sonli yig‘ilishida ma’qullangan. Universitet rektorining 2022 yil « _____ » dagi ___ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN: Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Mazkur malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti, Asosiy qoidalar, oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka ramkasi va o‘qituvchining kasb standartiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi xududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)</i> ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar.....	4
1.2.	<i>60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	5
1.2.3.	<i>60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	6
2.	<i>60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1.	Tayanch kompetensiyalar.....	7
2.2.	Umumkasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Kasbiy kompetensiyalar.....	9
3.	O‘quv yuklamasining hajmi.....	11
	Bibliografik ma’lumotlar.....	12

OLIY TA'LIM MALAKA TALABI

OLIY TA'LIM DARAJASI – BAKALAVRIAT

BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHI:

60112700 – MAXSUS PEDAGOGIKA (LOGOPEDIYa)

1. 60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) bakalavriat ta'lism yo'nališining umumiyo tavsifi

60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lism yo'nališi bo'yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va kechki (sirtqi) ta'lism shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lism shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lism yo'nališi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)** bakalavriat ta'lism yo'nališi bo'yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta'lism muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar:

mazkur ta'lism yo'nališi bo'yicha malaka talablari, fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lism muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;

ta'lism yo'nališining o'quv-reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lism muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta'lismni boshqarish bo'yicha vakolatlari Davlat organlari;

oliy ta'lism muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lism tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari Davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilarini hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lism muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lism yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lism yo'nališi bo'yicha bitiruvchilar kasbiy faoliyatining sohalari:

maktabgacha ta'lism tashkilotlari (ko'p tarmoqli, maxsus, ixtisoslashtirilgan va inklyuziv) da logoped, metodist, tarbiyachi, tashkilot rahbari; umumiyo o'rta ta'lism maktablarida logoped; aqli zaif, ko'zi ojiz, tayanch harakatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lism muassasalarida logoped, tarbiyachi; "Muruvvat uylari"da logoped; logopedik shoxobchalarda logoped, shoxobcha rahbari, Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi tashkilot va muassasalarda logoped; inklyuziv va korrekcion sinflar tashkil etilgan umumiyo o'rta ta'lism maktablarida

logoped, tyutor, maxsus pedagog sifatida pedagogik faoliyat;

korreksion, rehabilitatsion, rivojlantiruvchi usullar va kompyuter texnologiyalari qo'llaniladigan sohalarda ilmiy-tadqiqot faoliyati.

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo'naliши bo'yicha bitiruvchi bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

Korreksion va inklyuziv ta'lim, ijtimoiy va maxsus fanlar mazmunini tashkil etuvchi tushunchalar, usullar va ta'limiy modellar, tahlillar, tizimlar, dasturlar, ma'lumotlar, texnologiyalar;

ta'lim jarayoni;

pedagogik texnologiyalar va metodlar;

shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni;

darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayoni;

tibbiy-pedagogik-psixologik tashxis jarayoni;

kasbga yo'naltirish jarayoni;

nogironlikning oldini olish bo'yicha profilaktik va tashviqot ishlarini tashkil etish;

ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topish jarayoni;

ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo'naliши bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha o'rnatilgan tartibda pedagogik faoliyat olib borish;

ta'lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda faoliyat olib borish;

mos ta'lim yo'naliшlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uni tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

korreksion va inklyuziv ta'lim yo'naliшidagi ilmiy-tadqiqot markazlarida laborant bo'lib ishlash;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida mutaxassisligiga oid faoliyat olib borish;

kasbiy-ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalari, inklyuziv va korreksion ta'limning elektron vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

1.2.3. 60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo'naliши bo'yicha bitiruvchi bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *pedagogik (maktabgacha, umumiyo'rta, professional ta'lim tizimida);*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oly ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Bakalavriat dasturi tashkilot tomonidan o'quv faoliyati turlari va ta'lim dasturini o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablarga qarab shakllantiriladi.

1.2.4. 60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

pedagogik (maktabgacha, umumiy o'rta, professional ta'lim tizimida) faoliyatda:

nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan kompleks logopedik ish olib borishg;

klinik, maxsus pedagogik bilimlar asosida tibbiy manbalar va vositalardan foydalana bish va tahlil qilish;

koxlear jarrohlikdan oldingi va keyingi pedagogik-reabilitatsiya ishlarini rejalashtirish va olib borish;

xamkorlik faoliyatini amalga oshirish;

TPPK (tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya) tashxis metodikalarini qo'llash;

maktabgacha, umumiy o'rta, ixtisoslashtirilgan mакtablar, professional ta'lim tizimi tashkilotlarida korreksiya-kompensatsiya, reabilitatsiya va adaptatsiya ishlarini amalga oshirishga mo'ljallangan uslubiy ta'minotni ishlab chiqish;

nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'quvchilar bilan kompleks (diagnostik, korreksion, rivojlantiruvchi) ishlarni mashg'ulotlarda, oilada (uy ta'limi) olib borish va o'quv jarayonidan tashqari paytlarda mustahkamlashga mo'ljallangan elektron ta'lim metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish, takomillashtirish va kasbiy amaliyotda qo'llash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:

ilmiy rahbar boshchiligidagi ilmiy loyihalarda ishtirok etish;

amaliy loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish;

korreksion va inklyuziv ta'limning asosiy tushunchalari, g'oyalari va usullarini dolzarb muammolarni yechishda qo'llash;

ilmiy rahbar boshchiligidagi olib borayotgan tadqiqot mavzusi bo'yicha sharhlar, izohlar, tezislar va bibliografiyalar tayyorlash;

ilmiy – tadqiqot loyihalari mavzusi doirasida korreksion rivojlantiruvchi modellar, texnologiyalar, usullar, dasturiy ta'minot, vositalarni tadqiq qilish va ishlab chiqish.

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatda:

imkoniyati cheklangan bolalarning pedagogik – psixologik xususiyatlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan ta'lim vositalarini takomillashtirishga takliflar tayyorlash;

korreksion va inklyuziv ta'limga oid axborot texnologiyalariga asoslangan xizmatlarni amalga oshirish uchun adaptiv o'quv, korreksion, rivojlantiruvchi ta'lim modellarini ishlab chiqish va tadbiq qilish bo'yicha takliflar, tavsiyalar taqdim etish;

korreksion va inklyuziv ta'limga oid axborotlarni tahlil qilishning zamonaviy usullari va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishslash;

korreksion va inklyuziv ta'limga kompyuter tarmoqlari va xizmatlari uchun dasturiy hamda axborot ta'minotini ishlab chiqish yuzasidan takliflar shakllantirish.

Tashkiliy-boshqaruв faoliyatda:

kasbiy axloq etikasiga rioya qilish;

uzluksiz kasbiy rivojlanish traektoriyasini tuza olish;

korreksion va inklyuziv ta'lim sohasidagi muammolarni yechish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

o'qitish, tarbiyalash va ta'lim menejmenti jarayonlarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanimish;

pedagogik nizolar yuzaga kelgan vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul kilish;

xalq ta'limi boshqarma va bo'limlarida korreksion va inklyuziv ta'limga oid fanlardan

metodik xizmatlar va ekspert ishlarini olib bora olish;

 bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlar natijalarini baholash.

**2. Maxsus pedagogika (logopediya) ta’lim yo‘nalishi
bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**
2.1. Tayanch kompetensiyalar (TK)

Tayanch kompetensiyalar toifalari	Tayanch kompetensiyalar	Tayanch kompetensiyalarga erishish indikatorlari
Faol fuqarolik	TK-1. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun jamiyat tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va qonuniyatlarini tahlil qila oladi	TK-1.1. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni asosli, mantiqiy idrok etadi. TK-1.2. Kasbiy faoliyatida o‘quvchilar va jamoa orasida ijtimoiy, tarixiy voqealarni to‘g‘ri va xolis talqin qila oladi.
	TK-2. Dunyoqarash pozitsiya-sini shakllantirish uchun falsafiy bilimlar asoslaridan foydalana oladi	TK-2.1. Umummilliy qadriyatlар va vatanparvarlik g‘oyalarini mukammal tushunadi. TK-2.2. Shaxs duyoqarashi shakllari, turlari va tamoyillaridan foydalanadi.
Muloqot	TK-3. Faoliyatida davlat va xorijiy tillarda og‘zaki hamda yozma shakllarda muloqot qila oladi	TK-3.1. Xorijiy tillarni biladi hamda o‘zga millatlar madaniyatini hurmat qiladi. TK-3.2. Milliy va xorijiy ommoviy axborot vositalarini kuzatadi va tahlil qila oladi. TK-3.3. Kasbiy maqsadlariga erishish va samarali muloqot qilish uchun davlat va xorijiy tillarda og‘zaki va yozma shakllarda muloqot qila oladi.
Raqamli texnologiyalardan foydalanish	TK-4. Kasbiy faoliyatidagi maqsadga erishishda va vazifalarni bajarishda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalana oladi.	TK-4.1. Raqamli texnologiyalardan foydalana oladi, ma’lumotlarni ishlash, qayta ishlash va ulardan foydalana olishni biladi. TK-4.2. Kasbiy faoliyatida tayyor dasturiy ta’mintolarni va raqamli texnologiyalarni ishlata oladi va dars jarayoniga joriy qiladi. TK-4.3 Media va axborot savodxonlikni o‘zlashtirgan, tegishli texnologiyalardan foydalangan holda axborot va mediakontentni olish, baholash, yaratish va tarqatish layoqatiga ega bo‘ladi, shuningdek talabalarga zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam beradi.
Jamoada ishslash, hamkorlik va yetakchilik	TK-5. Ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni amalga oshiradi va jamoada o‘z rolini belgilay oladi.	TK-5.1 Jamoada ishslash qobiliyati hamda yetakchilik fazilatlari va ko‘nikmalarini namoyon etadi. TK-5.2. Samarali nutqiy va ijtimoiy o‘zaro aloqa qilish qobiliyatini, shu jumladan, turli tashkilotlar bilan ishlashda namoyon etadi.

Tizimli va tanqidiy fikrlash	TK 6. Axborotni izlash, tanqidiy tahlil va sintez qilish, vazifalarni hal qilish maqsadida tizimli yondashuvni qo'llaydi	TK-6.1 Tizimli va tanqidiy fikrlashning xususiyatlari to'g'risida bilimlarni namoyish etadi, ma'lumotlarga nisbatan o'z mulohazalari va baholarini asosli shakllantiradi, asosli qaror qabul qiladi.
		TK-6.2. Mantiqiy shakl va tartiblarni qo'llaydi, o'zining va boshqalarning aqliy faoliyati haqida fikr yurita oladi.
		TK-6.3 Axborot manbaalarini qarama-qarshilik va ishonchlik nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

2.2. Umumkasbiy kompetensiyalar (UKK)

Kasbiy faoliyat sohasi. Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish		
Umumkasbiy kompetensiyalar toifalari	Umumkasbiy kompetensiyalar	Umumkasbiy kompetensiyalarga erishish indikatorlari
1. O'quv jarayonini rejashtirish	UKK-1.1. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq darslarni rejashtiradi.	UKK-1.1.1. Ta'lim tashkiloti va muassasa hususiyatidan kelib chiqib, logopedik yakka va guruhli mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqadi.
		UKK-1.1.2. Nutqida nuqsoni bo'lgan bola va o'quvchilarining ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib, o'quv dasturini moslashtirishda fan va sinf o'qituvchisiga ko'maklashadi.
		UKK-1.1.3. Logopedik mashg'ulotlarda fanlararo kompetensiyalarni korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini hisobga olgan holda o'zining maxsus pedagogik faoliyatini rejashtiradi.
	UKK-1.2. O'quv dasturiga mos ravishda o'quv-metodik jamlanmalarni (dars rejasи, didaktik, taqdimot va tarqatma materiallar) ishlab chiqadi.	UKK-1.2.1. Nutqida nuqsoni bo'lgan bola va o'quvchilarida namoyon bo'lgan o'zgarishlar dinamikasini baholash natijasida olingen ma'lumotlarni inobatga olgan holda, mashg'ulotlarning aniq va o'lchamli maqsad va natijalarini aniqlab, mashg'ulotlar taktikasini o'zgartiradi va rejashtiradi.
		UKK-1.2.2. Mashg'ulot maqsadlari, nutqida nuqsoni bo'lgan bola va o'quvchilarining yosh hamda individual xususiyatlaridan kelib chiqib, ish shakllari va usullarini rejashtiradi.
		UKK-1.2.3. Tegishli o'quv, didaktik, taqdimot va tarqatma materiallardan foydalanishni rejashtiradi.
		UKK-1.2.4. Mashg'ulot jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalar integratsiyasini rejashtiradi.
2. Ta'lim samaradorligini ta'minlash (ta'lim	UKK-2.1. O'qituvchi ta'lim jarayonini samarali tashkil etadi.	UKK-2.1.1. Mashg'ulot maqsadlari asosida nutqida nuqsoni bo'lgan bola va o'quvchilar uchun erishimli maxsus vazifalarni belgilaydi.

dasturlarini amalga oshirish)		<p>UKK-2.1.2. Mashg‘ulotda vaqtini to‘g‘ri rejalashtiradi va reglamentdan oqilona foydalanadi.</p> <p>UKK-2.1.3. Ta‘lim jarayonini maxsus pedagogik-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ta‘limiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanadi.</p> <p>UKK-2.1.4. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchilar namoyon bo‘lgan o‘zgarishlar dinamikasini baholash natijasida olingan ma’lumotlar asosida qo‘llanilgan yondashuvlarining samaradorligini tahlil qiladi.</p> <p>UKK-2.1.5. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchilar motivatsion, ijtimoiylashuv maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan xususiy usullar va yondashuvlarni tanlaydi.</p>
	UKK-2.2. O‘qituvchi o‘quv maqsadlari va o‘quvchilarni yosh xususiyatlariga mos ravishda o‘qitishning usul va uslublaridan foydalanadi.	<p>UKK-2.2.1. O‘qitishning faol usullaridan foydalanadi.</p> <p>UKK-2.2.2. O‘quvchilarning jamoaviy va loyihibaviy ishlarini tashkil etadi.</p>
	UKK-2.3. O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘rgatish maqsadida o‘qish jarayoniga faol jalg qiladi.	<p>UKK-2.3.1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchilarga metakognitiv strategiyani o‘rgatishda turli yondashuvlardan, shu jumladan rejalashtirish, nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalaridan foydalanadi (kognitiv nosozliklarni inobatga olgan holda).</p> <p>UKK-2.3.2. Korreksion mashg‘ulotni hayot bilan bog‘liq ravishda olib boradi.</p> <p>UKK-2.3.3. Logopedik mashg‘ulotda har bir bola va o‘quvchiga o‘z g‘oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini beradi.</p>
3. O‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish	UKK-3.1. zamonaviy nazariyalarini qo‘llaydi.	<p>UKK-3.1.1. Fanga oid kompetensiyalarni baholay oladi.</p> <p>UKK-3.1.2. Ta‘lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanadi.</p> <p>UKK-3.1.3. Kasbiy faoliyatini xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS va boshqalar) talablariga yo‘nalgan holda tashkil etadi va natijalarning sifatini baholay oladi.</p> <p>UKK-3.1.4. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchilarning XXI asr ko‘nikmalariga ega ekanligini, konstruktiv, faol, qiziquvchan va jamiyatda tashabbuskor, faol fuqarolik pozitsiyasini egallaydigan, hal qiluvchi qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladigan,</p>

		<p>bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan, mulohazali shaxs sifatida shakllanganligini baholay oladi.</p> <p>UKK-3.1.5. Ta’lim natijalarini diagnostikasiga ko‘maklashishning turli usul va vositalaridan foydalanadi.</p>
	<p>UKK-3.2. O‘quvchilarning ta’lim yutuqlarini muntazam ravishda baholaydi va ularni tahlil qiladi.</p>	<p>UKK-3.2.1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchilar tomonidan bilimlarni egallash darajasini (hajmini) muntazam va tizimli ravishda kuzatib borgan holda ularda ta’lim motivatsiyasini tizimli rivojlantiradi.</p> <p>UKK-3.2.2. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchilar erishgan yutuq va natijalarini tahlil qiladi.</p> <p>UKK-3.2.3. Logopedik ish rejasi va usullarini tanlash va nutq nuqsonining murakkabligi va klinik jihatlariga moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanadi.</p>
	<p>UKK-3.3. O‘quvchilarga ularning yutuqlari haqida ma’lumot beradi, ularni o‘qishni davom ettirish va rivojlanishga undaydi.</p>	<p>UKK-3.3.1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchining yutuqlarini baholaydi, bahoni asoslab beradi.</p> <p>UKK-3.3.2. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchilarning yutuqlarini baholash orqali, ularni o‘qishni davom ettirishga va samarali ijtimoiylashuvga qiziqtiradi.</p>
	<p>UKK-3.4. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining o‘rganishdagi qiyinchiliklarini kuzatadi va tavsiflaydi. Agar kerak bo‘lsa, o‘qituvchi tegishli sohadagi mutaxassisiga murojaat qiladi.</p>	<p>UKK-3.4.1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchilar ta’lim jarayonida to‘qnashgan qiyinchiliklarini kuzatadi va qayd etadi.</p> <p>UKK-3.4.2. Muayyan sinf (guruh)da dars va mashg‘ulot olib boradigan hamkasblari bilan aniqlangan qiyinchiliklarning sabablari va bartaraf etish yo‘llari to‘g‘risida maslahatlashadi.</p> <p>UKK-3.4.3. Muayyan bola va o‘quvchining ta’lim olishidagi, ijtimoiylashuvidagi qiyinchiliklari to‘g‘risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashadi.</p>
4.Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.	<p>UKK-4.1. O‘qituvchi o‘quv faoliyatini tashkil qiladi, o‘quvchilarning rivojlanishiga hissa qo‘sadigan turli shakllarda ijtimoiy me’yorlarni shakllantiradi.</p>	<p>UKK-4.1.1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola va o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda rivojlanishiga hissa qo‘sadigan ta’lim maqsadlari va vazifalarini belgilaydi</p>
	<p>UKK-4.2. O‘qituvchi tarbiyaviy faoliyatini amalga oshiradi, qadriyatlarni rivojlantirish va tarbiyaviy ishlarining interfaol, shakllari va usullarini qo‘llaydi.</p>	<p>UKK-4.2.1. Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakl va usullarini mashg‘ulot va sinfdan tashqari ishlarda qo‘llaydi.</p> <p>UKK-4.2.2. Tarbiya ishlarni olib borishda bola va o‘quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga oladi.</p> <p>UKK-4.2.3. Bolaning emotsiunal- qadriyatli</p>

		<p>sohasini rivojlantiradigan vaziyatlar va hodisalarini loyihalashtiradi (bolaning ta'sirchanlik madaniyati va qadriyatlari yo'nalishlarini).</p>
		<p>UKK-4.2.4. Ta'lim tashkiloti va muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq ta'lim oluvchilar uchun aniq odob-ahloq qoidalarini belgilaydi va o'rnatadi.</p>
		<p>UKK-4.2.5. Nutqida nuqsoni bo'lgan bola va o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish faoliyatini tashkil qilishda yordam beradi va qo'llab-quvvatlaydi.</p>
		<p>UKK-4.2.6. Ta'lim muassasasining imkoniyatlarini, yashash joyi va mintaqaning tarixiy-madaniy o'ziga xosligini hisobga olgan holda logopedik mashg'ulot, sinfdan tashqari ishlarning o'yin, o'quv-tadqiqot, badiiy, ijodiy, madaniy kabi turlarini tashkil etadi.</p>
		<p>UKK-4.2.7. Ziddiyatlarni hal qilish, sinfda va undan tashqarida muloqot qilish uchun ijobiy muhit yaratadi.</p>
		<p>UKK-4.2.8. O'zgaruvchan ko'p madaniyatli muhitda nutqida nuqsoni bo'lgan bola va o'quvchilarda bag'rikenglik, odob-ahloq va mustaqil hayotga tayyorgarlik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantiradi.</p>
		<p>UKK-4.2.9. Ta'lim oluvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqat, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantiradi.</p>
5. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash	UKK-5.1. O'qituvchi har bir talaba uchun psixologik xavfsiz muhit yaratadi.	<p>UKK-5.1.1. Nutqida nuqsoni bo'lgan bola va o'quvchilarning erkin rivojlanishlari va o'zlarini namoyon eta olishlari uchun o'zaro hurmat muhitini yaratadi.</p>
	UKK-5.2. O'qituvchi turli vaziyatlarda o'quvchilarning ruhiy xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.	<p>UKK-5.1.2. Jinsi, millati, madaniyati, ona tili, dini, oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy holati va/yoki alohida ehtiyojlaridan qat'iy nazar, har bir ta'lim oluvchiga o'qish va sinf hayotida qatnashish uchun teng imkoniyatlar yaratadi.</p> <p>UKK-5.2.1. Nizoli vaziyatlarni yetarli darajada hal qiladi.</p> <p>UKK-5.2.2. Ta'lim oluvchilarga xavfsizlik qoidalarini mazmuni va ularga rioya qilish asoslarini tushunishga va unga rioya qilishga yordam beradi.</p>

		UKK-5.2.4. Ta'lim oluvchilarga turli xil tahdidlarning mohiyati, favqulodda vaziyatlarda harakatlanishning mazmuni va ketma-ketligini tushuntiradi.
	UKK-5.3. O'qituvchi sinfni samarali boshqaradi va o'quv muhitini talabalar ehtiyojlariga moslashtiradi.	UKK-5.3.1. Ta'lim oluvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan aniq ko'rsatmalar berish orqali sinf (guruh) jamoasi faoliyatini boshqaradi. UKK-5.3.2. Ta'lim oluvchilarning o'ziga xos ta'limi ehtiyojlari asosida individuallashtirilgan ish olib boradi.
	UKK-5.4. O'qituvchi o'quvchilarda zamonaviy ommaviy axborot vositalarida xavfsiz ishslash savodxonligini rivojlantiradi.	UKK-5.4.1. Ta'lim oluvchilarga zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz harakatlanish va ishslashga yordam beradi.
Kasbiy faoliyat sohasi. Kasbiy rivojlanish va hamkorlik		
6. O'z-o'zini rivojlantirish kasbiy o'sish va	UKK-6.1. O'qituvchi uzluksiz ta'lim olishning muhimligini tushunadi va kasbiy rivojlanish uchun turli imkoniyatlardan foydalanadi.	UKK-6.1.1. Muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tadi UKK-6.1.2. Doimiy ravishda kasbga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llaydi. UKK-6.1.3. Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tadbirda qatnashadi.
	UKK-6.2. Hamkasblari bilan tajriba almashish va ularning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida o'qituvchi hamkorlikda ishlaydi.	UKK-6.2.1. Ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari"da qatnashadi. UKK-6.2.2. O'zaro dars va mashg'ulotlarda qatnashadi, ularni tahlil qiladi, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanadi.
	UKK-6.3. O'qituvchi o'z ishini o'z-o'zini tahlil qilish va o'zini o'zi baholash asosida o'z kasbiy rivojlanishini rejorashtiradi va amalga oshiradi.	UKK-6.3.1. O'z tajribasini namoyish etish uchun ochiq mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi va o'tkazadi. UKK-6.3.2. O'zining ta'lif faoliyatini (kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholaydi va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay oladi. UKK-6.3.3. O'zining ish amaliyotida kerakli o'zgarishlarni amalgaga oshiradi.
7. Hamkasblar va ta'lif oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik	UKK-7.1 O'qituvchi bolalarning rivojlanishi manfaatlarida ota-onalarni maktab bilan hamkorlikning turli shakllariga jalb qiladi.	UKK-7.1.1. Ta'lim oluvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lif jarayoniga jalb qiladi. UKK-7.1.2. Ta'lim oluvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) sinf va maktab hayotiga jalb qiladi. UKK-7.1.3. Ta'lim oluvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lif muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb qiladi.

	UKK-7.2 O‘qituvchi o‘quv vazifalarini bajarish uchun hamkasblari va mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi.	UKK-7.2.1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bola o‘quvchining individual ta’lim traektoriyasini loyihalashtirish va to‘g‘rilash uchun tor mutaxassislar va pedagoglar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, nutqiy, jismoniy, psixologik, intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish vazifalariga muvofiq hamkorlik qiladi. UKK-7.2.2. Tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va ta’lim oluvchilarini hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo‘limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qiladi.
--	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

2.3. Kasbiy kompetensiyalar (KK)

Mutaxassislik faoliyatasi asoslari	KK-1. Kelajakdagi kasbiy faoliyatda logopediya, logopsixologiya, klinika, xususiy AKT, logopedik xizmat va texnologiyalar, inklyuziv ta’lim, tarbiyaviy ishlarga oid nazariyalarni qo‘llash bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	KK-1.1. Kasbiy faoliyatda logopediya, logopsixologiya, klinika, xususiy AKT, logopedik xizmat va texnologiyalar, inklyuziv ta’lim, tarbiyaviy ishlarga oid nazariyalarni qo‘llash bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni namoyon etadi. KK-1.2. Korreksion va inklyuziv ta’limga oid bilimlari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtiroy eta oladi.
	KK-2. Kelajakdagi kasbiy faoliyatda korreksion va inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, korreksiya, kompensatsiya, reabilitatsiya, adaptatsiyaga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	KK-2.1. Kasbiy faoliyatda korreksion va inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, korreksiya, kompensatsiya, reabilitatsiya, adaptatsiyaga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarni namoyon etadi. KK-2.2. Korreksiya, kompensatsiya, reabilitatsiya, adaptatsiyaga oid bilimlari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtiroy eta oladi.
Axborot xavfsizligi	KK-3. Axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan hamda imkoniyati cheklangan bolalar hususiyatlariga moslashtirilgan axborot muxitini yarata oladi.	KK-3.1. Kasbiy va ilmiy faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalana oladi.
Ilmiy-tadqiqot faoliyatasi	KK-4. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtiroy etadi.	KK-4.1. Kasbiy faoliyatda ilmiy-texnik muammolarni hal etishda ishtiroy etadi. KK-4.2. Kasbiy faoliyatda va iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion va startap loyihalarni amalga oshirishda ishtiroy eta oladi.
Umumpedagogik funksiyalar.	KK-5. Aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan kasbiy vazifalarni yechishda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi va ulardan foydalana oladi.	KK-5.1. Logopedik mashg‘ulotning tuzilishi, tarkibi va kompleks (korreksion, diagnostik, rivojlantiruvchi, psixologik, kognitiv) didaktik birliklarni to‘g‘ri qo‘llaydi. KK-5.2. Nutq nuqsoni darajasi va murakkabligiga qarab, logopedik mashg‘ulot uchun korreksion metodikalarni tanlaydi,

		<p>pedagogik, perceptiv qobiliyatni namoyon etadi.</p> <p>KK-5.3. Logopedik mashg‘ulotda maxsus metodlar, texnologiyalar, shu jumladan raqamli texnologiyalarni qo‘llash malakalarini namoyon etadi.</p>
	<p>KK-6. Turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga mos ravishda madaniy-ma’rifiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘ladi.</p>	<p>KK-6.1. Logopedik ishlarni amalga oshirish uchun madaniy-ma’rifiy makonni tashkil qiladi va madaniy-ma’rifiy faoliyatning turli texnologiyalari va usullarini qo‘llaydi.</p> <p>KK-6.2. Madaniy-ma’rifiy tadbirlarni ijtimoiy guruhlar individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, logopedik ta’sir yo‘nalishlarining (profil bo‘yicha) mazmuniy resurslaridan kelib chiqqan holda tashkil etish usullaridan foydalana oladi.</p> <p>KK-6.3. Korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik jarayon sub’ektlari o‘rtasida kasbiy bilimlarni va ilg‘or tajribalarni ommalashtirishda ishtirok etadi.</p>
	<p>KK-7. Tegishli fan bo‘yicha talabalarning individual va bиргалидаги о‘кув ва лойиҳа фаолиятини ташкил қила олади</p>	<p>KK-7.1. Loyihalashtirishni bilish, loyihalashtirish texnologiyalaridan foydalanish malakalarini namoyon etadi.</p> <p>KK-7.2. Ta’lim oluvchilarining individual va bиргалидаги о‘кув ва лойиҳа фаолиятини ishlab chiqadi va amalga oshiradi.</p>
	<p>KK-8. Imkoniyati cheklangan shaxslarni o‘qitishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalana oladi.</p>	<p>KK-8.1. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning maxsus usullari va zamonaviy texnologiyalarini biladi.</p> <p>KK-8.2. Maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchilarning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) bolalarni tarbiyalash va o‘qitish masalalari bo‘yicha maslahatlar berish usullarini tanlay oladi.</p>
	<p>KK-9. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan, shu jumladan masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil eta oladi.</p>	<p>KK-9.1. Zamonaviy uslub va texnologiyalarga muvofiq turli xil darajadagi korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim dasturlarini ishlab chiqqa oladi.</p> <p>KK-9.2 Ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilish vositalarini shakllantiradi.</p> <p>KK-9.3. Diagnostika va monitoring faoliyati natijalariga muvofiq o‘quv jarayonini korreksiya qilish rejasini ishlab chiqadi.</p>
	<p>KK-10. O‘quv-tarbiya jarayoni va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishni ta’minlashni biladi.</p>	<p>KK-10.1. Bolalar shikastlanishining oldini olish choralarini qo‘llash va sog‘lig‘ini saqlash texnologiyalardan foydalananadi.</p> <p>KK-10.2. O‘quvchilarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadi.</p>

3. O‘quv yuklamasining hajmi

O‘quv reja tarkibi quyidagi modullardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq: umumiy fanlar moduli, til va muloqot moduli, pedagogik-psixologik fanlar va tarbiyaviy faoliyat moduli, ilmiy-tadqiqot moduli, kasbiy fanlar va ularni o‘qitish metodikasi moduli, tanlov fanlari (qo‘srimcha ixtisoslashuv) moduli.

Majburiy fanlar hajmi 125 kreditdan 160 kreditgachani tashkil etadi. Tanlov fanlariga ajratilgan kreditlarning hajmi jami fanlarga ajratilgan kreditlar hajmining 22 foizidan oshmasligi tavsiya etiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o‘rtalim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib boriladi.

Talabaning haftalik o‘quv yuklamasi 54 soat etib belgilanadi. Bakalavrit ta’lim dusturini amalga oshirishda majburiy va tanlov fanlarining umumiy soni 32 tagacha bo‘lishi tavsiya etiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 376:370:008

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat, kompetensiya, modullar, ta'lim mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'ektlari, kasbiy faoliyat sohasi, o'quv rejalar, profil, ta'lim sikli, logopedik mashg'ulot va xizmat, maxsus pedagogika va metodika, nutq xaritasi, eshitish reabilitatsiyasi, global o'qish, nutq nuqsonlari, reverberatsiya, funksiya, korreksiya, adaptatsiya, reabilitatsiya, binarual eshitish, koxlear implantatsiya, axborot, modellashtirish, dasturiy-didaktik ta'minot, xalqaro tajriba, ma'lumotlar bazasi, axborot havfsizligi, differensial, texnologiya, ta'lim vositalari, kommunikatsiya, soha axborot texnologiyalari, axborotlarni yig'ish, tahlil qilish, toplash, qayta ishslash, zamonaviy tadqiqot usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, logopedik xizmat, klinika, fonema, nafas ustida ishslash, prosodika, fonematik idrok, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, nazariya.

Malaka talabini ishlab chiqishda foydalanilgan kasb standarti:

Kasb standarti nomi	Kasbiy faoliyat turi	Kasb standartining qayd qilish raqami	Kasb standartini amaliyatga joriy etish sanasi
Umumiyl o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi	Umumiyl o'rta ta'limda pedagogik faoliyat	R.003.332.1286/I-21	23.08.2021 № 332-ICh

Manbaa: Kasb standartlari reyestri, <https://prof-standart.uz/uz/profStandart/1291>

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilar

IShLAB ChIQILGAN:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Rektor

G.I.Muxamedov



2021 yil «_____»

KELISHILGAN:

OO'MTV huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tadbiq etish markazi

Direktor _____ Sh.U.Yakubov


2021 yil «_____»
M.O'.

Kadrlar buyurtmachisi:



Direktor _____ Sh.Sh.Sattarov

2021 yil «_____»
M.O'.



EKSPERTIZADAN O'TKAZILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish
davlat inspeksiyasi

Ta'lim muassasalarini attestatsiyasi va davlat akkreditatsiyasi bosh boshqarmasi
boshligi _____ A.A.Odilov

M.O'.



2021 yil «_____»